

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MUSAYEVA ZIYODA ALLAYAROVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK
TADQIQ QILISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Musayeva Ziyoda Allayarovna

О‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi
omillarni ekonometrik tadqiq qilish..... 3

Мусаева Зиеда Аллаяровна

Эконометрическое исследование факторов, влияющих на сокращение
бедности в Республике Узбекистан..... 27

Musayeva Ziyoda Allayarovna

Econometric study of factors affecting poverty reduction in the Republic of
Uzbekistan..... 51

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MUSAYEVA ZIYODA ALLAYAROVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK
TADQIQ QILISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1788 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim tarmog'ida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Alimov Raimjon Xakimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdug'aniyev Otabek Allajonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Utanov Bunyod Quvondiqovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona Politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyo aholisining 736 millioni o'ta kambag'allik sharoitida kun kechirmoqda. BMT qashshoqlik chegarasini asosiy tovarlar va xizmatlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, suv, elektr energiyasi, maktab, tibbiy yordam) sotib olish uchun zarur bo'lgan daromad darajasi sifatida belgilaydi. Qashshoqlik darajasi nisbiy tushuncha bo'lib, ma'lum bir mamlakatda farovonlikning umumiy darajasiga bog'liq. Qashshoqlik darajasi eng yuqori qit'a Afrika, u sayyoradagi eng qashshoq mamlakatlar tarkibiga kiritilib, unda Kongo demokratik respublikasining o'ta qashshoqlik darajasi – 77,1 foiz va Madagaskar – 77,6 foiz¹ga tengligini keltirish mumkin. Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda butun dunyo miqyosida kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va aholi turmush farovonligini oshirish muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon banki kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosati ustuvor yo'nalishlarining 3 ta asosiy yo'nalishini belgilab beradi, jumladan, aholini emlash, ish bilan ta'minlash va ish haqini oshirish hamda aholini iqtisodiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy yordam dasturlarini yanada rivojlantirish, mahalliy hukumat organlariga aholining kam ta'minlangan qatlamlarini va ijtimoiy himoya sohasidagi vazifalarni aniqlash maqsadida kambag'allik chegarasini belgilashni taklif etadi. Bunda turli mezonlardan foydalanilib, boy mamlakatlarda qashshoqlik chegarasi, kambag'al mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Bu esa o'z navbatida, kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilish va kambag'allikni qisqartirish yo'llarini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish bilan bog'liq holda jamiyatda kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirishning yangicha yo'llariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"²gi qarori²da belgilangan ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning daromadini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda aholi ehtiyojmand qatlamining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kengaytirish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor qaratish vazifalarini belgilanganligi mazkur tadqiqotning dolzarb masalaga qaratilganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, 28-yanvar 2022-yildagi

¹ <https://www.un.org/ru/global-issues/ending-poverty>

² O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 4 yillik strategiya ishlab chiqilmoqda "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"²gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori loyihasi e'lon qilindi. <https://yuz.uz/news/>

PF-60-sonli, O‘zbekiston “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 3-dekabrdagi 2021-yildagi PF–29-sonli, “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 25-iyul 2022-yildagi PF–175-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 29-aprel 2022-yildagi PQ–230-sonli va Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 18-iyul 2022-yildagi PQ–323-son qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan: xorijiy olimlardan R.Adams, Lin, H.Bhanumurti, H.Mitra, Arndt Jeyms, Arndt Simler, N.Birdsall, J.L.Londono, S.Arjun, H.Rights, G.S.Fields³, MDH davlatlari mutaxassis olimlaridan N.V.Kovalenko⁴, O.V.Garashuk, V.I.Kusenko, I.Ansoff, A.L.Gaponenko, G.A.Parsadanov, Yu.V.Yakovsa, V.N.Leksin, A.N.Shvesov va boshqalar nazariy tadqiqot olib borganlar. O‘zbek iqtisodchi olimlaridan akad. V.Qobulov va akad. S.G‘ulomov, prof. R.X.Alimov, prof. N.M. Maxmudov, prof. B.B.Berkinov, prof. A.A.Nabixodjayev, G.A.Alimova, I.S.Abdullayevlar O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarini ijtimoiy-

³ Adams, R (2002) Economic Growth, Inequality and Poverty: Findings from a New Data Set, Policy Research Working Paper 2972, World Bank, February 2002, and Ravallion, M and S Chen (1997) ‘What Can New Survey Data Tell Us about Recent Changes in Distribution and Poverty?’ World Bank Economic Review, 11(2): 357-82.; Lin (2003), Economic Growth, Income Inequality, and Poverty Reduction in People's Republic of China, Asian Development Review, vol. 20, no. 2, 2003, pp. 105-24.; H.Bhanumurthy and H.Mitra (2004), Economic Growth, Poverty, and Inequality in Indian States in the Pre-reform and Reform Periods, Asian Development Review, vol. 21, no. 2, 2004, pp. 79-99.; Arndt, James, and Simler (2006), Has Economic Growth in Mozambique Been Pro-Poor?, Food Consumption and Nutrition Division Discussion Paper 202.; Birdsall, N. and J.L. Londono (1997), ‘Asset Inequality Matters: An Assessment of the World Bank’s Approach to Poverty Reduction’, American Economic Review, 87(2), AEA Papers and Proceedings: 32-37.; Sengupta Arjun, Human Rights to Development, Report of the Independent Expert on the Protection of Human Rights to Development [www.unhcr.ch/Huridocda/Huridoca.nsf/0/78e0cb0e6e6ea624c1256961004f7a98/\\$FILE.pdf](http://www.unhcr.ch/Huridocda/Huridoca.nsf/0/78e0cb0e6e6ea624c1256961004f7a98/$FILE.pdf); Fields, G. S. (1989) “Changes in Poverty and Inequality in the Developing Countries”, mimeographed paper.;

⁴ Kovalenko NV Poverty as a socio-economic category. State building. 2007. № 2. URL: http://nbuv.gov.ua/UJRN/DeBu_2007_2_10; Гаращук О. В., Куценко В. І. Контент фахової освіти: аналіз, оцінка, перспективи. Економічний аналіз: зб. наук. праць. Тернопіль: «Економічна думка». 2016. Том 24. № 1. С. 7–15.; И. Ансофф Стратегическое управление. М.: Экономика, 1989, 519 с.; Гапоненко А.І. Стратегия социально-экономического развития: страна, регион, город. -М.: Изд-во РАГС, 2001.- 224 с.; Парсаданов Г.А. Планирование и прогнозирование социально-экономической системы страны (теоретико-методологические аспекты): Учебное пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.- 223 с.; YU.B.Яковца Теоретические основы и модели долгосрочного макроэкономического прогнозирования /под ред. - М.: МФК, 2004.; Лексин

iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, oilalarda kambag'allikni qisqartirish hamda bandligini oshirish masalalari bo'yicha tadqiqot olib borganlar.

Ammo ushbu tadqiqotlarda aynan hududlar bo'yicha (Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent viloyatlari bo'yicha) kambag'allikni qisqartirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ekonometrik tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Xotin-qizlarning ish bilan bandligini ta'minlash uchun Kraudfanding platformasi va STEM dasturini yaratishda baholash indikatorlarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyiha (2022-2023y) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kambag'allik, tengsizlik tushunchalari va ularning baholash mohiyatini hamda taqsimot imkoniyatlarining o'zaro ta'sirining nazariy asoslarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida kambag'allik va tengsizlikni qisqartirishning ustuvorligi hamda kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish;

kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillar munosabatlarini iqtisodiy tahlilini amalga oshirish va ekonometrik baholash;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishi bilan tengsizlikning kuchayishi o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlarini o'rganish va kambag'allik darajasini ekonometrik baholashning hududiy geografik xususiyatlari asosida takomillashtirish;

kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini prognoz qilish.

Tadqiqot obyekti bo'lib, Andijon viloyati va uning tarkibida faoliyat yuritayotgan tumanlar tanlab olingan.

Tadqiqot ishining predmetini kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilishning zamonaviy yondashuvlari va strategiyalarini takomillashtirish istiqbollarini ko'p variantli prognozlash jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy yondashuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tanlanma, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish va aniqlangan model yordamida prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Uslubiy yondashuvga ko'ra milliy iqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy o'lchovi aholi turmush darajasining rivojlanishidagi yutuqlarning tan olinishiga asoslanuvchi yondashuv bo'yicha kambag'allikni kamaytirish va turmush

darajasini oshirishga qaratilgan omillardan samarali foydalanish mexanizmi takomillashtirilgan;

Daromadlarning aholi guruhlari bo'yicha notekis taqsimoti tamoyili asosida aholining 20 foizli guruhlari bo'yicha "kambag'al aholi", "daromadi o'rtacha darajadan past aholi", "o'rtacha daromadli aholi", "daromadi o'rtacha darajadan yuqori aholi" va "boy aholi" guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi asoslangan;

Mamlakat hududlari bo'yicha kambag'allik darajasini "a'lo" [8,55 -11,38], "yaxshi" [11,38 - 14,26], "o'rta" [14,26 -17,14], "qoniqarli" [17,14 -20,02], "qoniqarsiz" [20,02 -22,90] chegaralari bilan tavsiflanuvchi sifat mezonlari asosida baholash taklif etilgan;

O'zbekiston Respublikasi va Andijon viloyati bo'yicha kambag'allik darajasi o'zgarishining 2027 yilga qadar ko'p omilli solishtirma prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan..

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, Andijon viloyati statistika boshqarmasi statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mas'ul tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va kambag'allikni qisqartirishni iqtisodiy-statistik usullarda ilmiy tadqiq etish, ko'p omilli prognozlash variantlarini ishlab chiqish hamda kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni baholashda ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati respublikamiz hududlarida, xususan Andijon viloyati va tumanlari o'rtasida kambag'allikni kamaytirish, Andijon viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqilishida hamda oliy o'quv yurtlarida talabalarga "Iqtisodiy xavfsizlik", "Statistika asoslari", "Ekonometrika", "Matematik modellashtirish" kabi fanlardan o'quv-uslubiy qo'llanma va keys-stadilar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalar asosida:

Uslubiy yondashuvga ko'ra milliy iqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy o'lchovi aholi turmush darajasining rivojlanishidagi yutuqlarning tan olinishiga asoslanuvchi yondashuv bo'yicha kambag'allikni kamaytirish va turmush darajasini oshirishga qaratilgan omillardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Aholi turmush darajasini modellashtirish" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Akademik mustaqillik vakolatiga ko'ra Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2022 yil 24-oktyabridagi 328-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda kambag'allikni kamaytirish va turmush darajasini oshirishga

qaratilgan omillardan samarali foydalanish mexanizmi to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

Daromadlarning aholi guruhlari bo'yicha notekis taqsimoti tamoyili asosida aholining 20 foizli guruhlari bo'yicha "kambag'al aholi", "daromadi o'rtacha darajadan past aholi", "o'rtacha daromadli aholi", "daromadi o'rtacha darajadan yuqori aholi" va "boy aholi" guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishini hisobga olish taklifi O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan aholi daromadlarini hisoblash uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 9-avgustidagi 1-01-03-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda aholi o'rtasida o'rtacha daromadli va undan yuqori aholi qatlami 2015 yilga nisbatan 2021 yilda mos ravishda 0,4% va 2,0%ga oshganligi aniqlanib, mamlakatda o'rta qatlamni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

Mamlakat hududlari bo'yicha kambag'allik darajasini "a'lo" [8,55 -11,38], "yaxshi" [11,38 - 14,26], "o'rta" [14,26 -17,14], "qoniqarli" [17,14 -20,02], "qoniqarsiz" [20,02 -22,90] chegaralari bilan tavsiflanuvchi sifat mezonlari asosida baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan aholi daromadlarini hisoblash uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 9-avgustidagi 1-01-03-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakat viloyatlari bo'yicha kambag'allik darajasini sifat mezonlari asosida baholash orqali aholi turmush darajasini oshirishga manzilli yondashish imkoni yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasi va Andijon viloyati bo'yicha kambag'allik darajasi o'zgarishining 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan ko'p omilli solishtirma prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Andijon viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi tomonidan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 9-avgustidagi 1-01-03-sonli hamda Andijon viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasining 2023 yil 21 fevraldagi 03-13/08-650-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2027-yilga qadar O'zbekistonda, shu jumladan, Andijon viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish dasturining istiqboldagi ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda: 2 ta nufuzli xorijiy jurnalda ilmiy

maqola, mahalliy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 6 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Respublikada kambag'allikni qisqartirishni ekonometrik tadqiq qilishning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilishda tushunchalar, ekonometrik modellarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari hamda kambag'allik va tengsizlikni qisqartirishda ekonometrik modellar va usullarni qo'llashning xorij tajribasi to'g'risida bayon etilgan.


Iqtisodiy rivojlanish o'z-o'zidan aholi farovonligini bir xilda o'sishiga va tengsizlikning kamayishiga olib kelmaydi. Keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, muammolardan faqat bittasini hal qilishga qaratilgan siyosat boshqalarni yomonlashtirishi mumkin. Shunday qilib, qashshoqlik, tengsizlik va iqtisodiy rivojlanish tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biriga ta'sir qiladi. Iqtisodiy o'sishning qashshoqlik va tengsizlik darajasiga ta'siri ham salbiy, ham ijobiy bo'lishi mumkin. Xususan, iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarining notekis rivojlanishiga, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy o'sishining ayrim manbalariga qaramligini chuqurlashtirishga bu esa, o'z navbatida, tengsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish manbalariga qaramlikning kuchayishi kapital va malakali mehnat o'rtasidagi bir-birini to'ldirish, texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq malakalar va umumiy daromaddagi kapital ulushini oshirish kabi omillar tufayli tengsizlikni oshiradi. Bunda davlat siyosati raqobatni kuchaytirish va korrupsiyani kamaytirishga qaratilishi kerak, bu esa o'z navbatida tengsizlikning kamayishiga olib keladi. Boshqa tomondan, iqtisodiy o'sish aholi bandligini va biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishga, mamlakat ichida qayta taqsimlash uchun resurslarni ko'paytirishga olib keladi. Bularning barchasi tengsizlik va umuman qashshoqlik darajasini pasaytirishga yordam beradi.

J.D.Ostry va A.Berg o'z tadqiqotlarida tengsizlikning qisqarishi iqtisodiy o'sish davomiyligiga ta'sir qilishini bunda Jini koeffitsiyentining 40 %dan 37 %gacha pasayishi sifatida qabul qilingan tengsizlikning 10 foizga pasayishi

kutilayotgan o‘shish muddatini 50 %ga oshirishini⁵ isbotladilar. Umuman olganda, daromadni qayta taqsimlash iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tengsizlikning past darajasi tezroq va barqaror iqtisodiy o‘shish bilan bevosita bog‘liq.

Bu borada Jahon iqtisodiy forumining rasmiy sayti inklyuziv rivojlanish indeksidan foydalanadi, bu har yili 103 mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholaydi⁶. Indeks mamlakatlarning yalpi ichki mahsulot o‘shishi va iqtisodiy taraqqiyotning o‘n bir qo‘shimcha ko‘rsatkichlari asosida ish faoliyatini o‘lchaydi. U o‘shish va rivojlanish, inklyuziya, avlodlararo tenglik hamda tabiiy va moliyaviy resurslarni barqaror boshqarish kabi uchta ustunga asoslanadi (1-rasm).



1-rasm. Jahon iqtisodiy forumi metodologiyasi bo‘yicha milliy asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari⁷

So‘nggi paytlarda xalqaro iqtisodiyotda yangi tushuncha - inklyuziv o‘shish, ya’ni iqtisodiy o‘shishning barcha iqtisodiy agentlari uchun adolatli va teng imkoniyatlarni ta’minlash, shuningdek, jamiyatning barcha tarmoqlari o‘rtasida taqsimlangan imtiyozlar paydo bo‘ldi. Inklyuziv o‘shish jamiyatda adolatli taqsimlangan va hamma uchun imkoniyatlar yaratadigan iqtisodiy o‘shish sifatida belgilanadi⁸. Bundan ko‘rinadiki, inklyuziv o‘shish, iqtisodiy o‘shishdan tashqari, inson kapitali, ijtimoiy xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligi va

⁵ Ostry J.D., Berg A., Tsangarides C.G. Redistribution, inequality, and growth. IMF Staff Discussion Note. Washington D.C. 2014.; Ostry J.D., Berg A., Zettelmeyer J. What makes growth sustained? IMF Working Paper. Washington D.C. 2008.


⁶ Official website of World Economic Forum URL: <https://www.weforum.org>. (Last accessed 2019).

⁷ Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

⁸ Inclusive growth. Organization of economic cooperation and development. 2019. URL: <https://www.oecd.org/inclusive-growth/>. (Application date 2019).

atrof-muhit sifatini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy rivojlanish, agar u mamlakatda qashshoqlik darajasini pasaytirishga va imkoniyatlar tengsizligini kamaytirish orqali ijtimoiy harakatchanlikni oshirishga olib kelsa, inklyuziv hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy forumi milliy iqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy o'lchovi yalpi ichki mahsulotning o'sishi emas, balki turmush darajasining rivojlanishidagi yutuqlarni tan olish bo'lishi kerakligini ta'kidladi⁹. Kuchli o'rta sinfning o'sishi va qashshoqlik kamayishiga guvoh bo'lgan mamlakatlar ushbu sohalarning ko'pchiligida samarali iqtisodiy institutlar va siyosat rag'batlarini yaratishga moyil bo'ldi, shu bilan birga o'sishni oqilona makroiqtisodiy siyosat va samaradorlikni oshiruvchi islohotlar orqali qo'llab-quvvatladi. Ushbu fikr-mulohazalardan kelib chiqib bizningcha kambag'allikni kamaytirish va turmush darajasini oshirishga qaratilgan omillardan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm. Turmush darajasini oshirishga qaratilgan omillardan samarali foydalanish mexanizmi¹⁰

2-rasmda keltirilgan mexanizm 7 ta ustundan iborat. Ustunlarda umumiy holda 15 ta qo'llab-quvvatlovchi bo'limlar mavjud bo'lib, ular bugungi iqtisodiyotning bir qator tarkibiy omillarini tavsiflaydi, bu ayniqsa turmush

⁹ The Inclusive Growth and Development Report. World Economic Forum. Cologny. Switzerland. 2017.

¹⁰ Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

darajasini oshirish ko‘lamiga ta’sir qiladi. Moliyaviy siyosatning ta’siri ham salbiy, ham ijobiy bo‘lishi mumkin. Fiskal islohotlarning ta’siri barcha aholi guruhlari uchun bir xil bo‘lmasa-da, moliyaviy islohotlar bir xil va barqaror iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, turg‘unlik davrida soliqlarning oshishi, ehtimol, jamiyatdagi eng katta guruh bo‘lgan va aholining badavlat sinfiga qaraganda ko‘proq soliq to‘lashga majbur bo‘lgan o‘rta sinfga ta’sir qiladi.

Davlat xarajatlari faqat aholining ma’lum bir guruhiga ta’sir qilishi mumkin. Xususan, infratuzilmani yoki agrosanoat kompleksini rivojlantirish loyihalarini davlat tomonidan moliyalashtirilishi ko‘p sonli ishchilar bandligi va daromadlarining oshishiga olib keladi. Ammo davlat muzey qurilishi kabi ayrim ixtisoslashtirilgan loyihalarni moliyalashtirishga qaror qilsa, u faqat oz sonli mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlaydi va mamlakatning umumiy talabi hamda mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Kambag‘allik darajasini pasaytirish uchun ko‘pincha davlat xarajatlarini tarkibiy o‘zgartirish va aholini qo‘llab-quvvatlashning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish kabi vositalar qo‘llaniladi.

Shunday qilib, davlat xarajatlarini tarkibiy o‘zgartirish inson kapitalini rivojlantirishga ijobiy hissa qo‘shishi mumkin va mamlakatda qashshoqlikni kamaytirishga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, sog‘liqni saqlash va ta’lim foydasiga xarajatlarni qayta qurish ushbu aniq davrda qashshoqlikni kamaytirishga ta’sir qiladi va kelajakda aholining qashshoqlashuvi rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Qayta qurish, shuningdek, infratuzilmaga investitsiyalarni ko‘paytirishga yordam beradi, bu esa tezroq iqtisodiy o‘shishga olib keladi. Maqsadli subsidiya dasturlarini joriy etish qashshoqlikni qisqartirishga darhol ta’sir qiladi. Ko‘p hollarda ma’lum fiskal vositalardan foydalanish ko‘pincha iqtisodiy yoki ijtimoiy ehtiyojlarga emas, balki davlat amaldorlarining siyosiy maqsadlari va imtiyozlariga, shuningdek, saylovoldi tashviqoti davriga bog‘liq bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi omillarning iqtisodiy tahlili va ularning ta’sirini ekonometrik baholash”** nomli ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi omillar tahlili, kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi omillar munosabatlarini ekonometrik baholash hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishi bilan tengsizlikning kuchayishi o‘rtasidagi bog‘liqlik munosabatlari bayon etilgan.

Jahon iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlarini oshishi bilan jamiyatda daromadlarni taqsimlash masalasi asosiy o‘rinni egalladi. Ushbu muammoni o‘rgangan olimlardan biri Max Otto Lorenz edi. U to‘rtburchaklar koordinatalari tizimidagi hodisani ko‘rsatadigan taqsimot funksiyasi tushunchasini taklif qildi¹¹. Lorenz taqsimotining ishlash prinsipi misolida O‘zbekiston Respublikasi aholisi

¹¹ / Max O. Lorenz "Methods of Measuring the Concentration of Wealth", 1905, *Pub ASA* (Jun), [p.209](#) [[js](#), [av](#)]

daromadlarini aholining 20 foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi ko'rildi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarining taqsimoti¹²

Jamiyat qatlami	Aholi ulushi, %da	Aholi umumiy daromadiga nisbatan daromadlar, %da							
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2021-2015 farqi
Kambag'al aholi	20	9,6	9,5	9,3	9,3	9,1	8,5	8,4	-1,2
Daromadi o'rtacha darajadan past aholi	20	13,7	13,6	13,6	13,6	13,6	13,3	13,4	-0,2
O'rtacha daromadli odamlar	20	17,1	17,1	17,3	17,2	17,4	17,2	17,5	0,4
Daromadi o'rtacha darajadan yuqori aholi	20	21,0	21,4	21,8	22,0	22,6	22,6	23,0	2,0
Boy aholi	20	38,7	38,4	37,9	37,8	37,3	38,3	37,6	-1,1

Lorenz taqsimotining ishlash prinsipi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarining taqsimotini ko'radigan bo'lsak, 2015-yilda mamlakatimizda kambag'al aholi qatlamining 20 %iga 9,6 % va boy aholining 20 %iga jami daromadlarning 38,7 %i taqsimlangan bo'lsa, bu o'z navbatida 2021-yilga kelib har ikki ko'rsatkich bo'yicha mos ravishda 1,2 % va 1,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin. Bu esa mamlakatda aholi o'rtasida o'rtacha daromadli va undan yuqori aholi qatlamiga 2015-yilga nisbatan 2021-yilda mos ravishda 0,4 % va 2,0 % oshganligida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, hozirgi kunda mamlakatimizda notekis taqsimlanishini oldini olish maqsadida mamlakatda o'rta qatlamni rivojlantirishga e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Aholi daromadlarining jamiyatda mutlaqo teng taqsimlanishiga nisbatan notekis taqsimlanishini ifoda etuvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri Jini koeffitsiyentidir. Muqobil yondashuv - Jini koeffitsiyentini nisbiy o'rtacha mutlaq farqning yarmi sifatida aniqlash – bu matematik jihatdan Lorens egri chizig'iga asoslangan ta'rifga tengdir¹³. O'rtacha mutlaq farq aholining barcha juft juftliklarining o'rtacha mutlaq farqi, nisbiy o'rtacha mutlaq farq esa o'rtacha mutlaq farqning o'rtacha ko'rsatkichga bo'linganligidir, \bar{x} masshtabni normallashtirish uchun. Agar x_i shaxsning boyligi yoki daromadi bo'lib ular n kishi bo'lsa, Jini koeffitsiyenti quyidagicha ifodalanadi:


¹² Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

¹³ Max O. Lorenz "Methods of Measuring the Concentration of Wealth", 1905, *Pub ASA* (Jun), p.209 [js, av]

$$G = \frac{\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n |x_i - x_j|}{2 \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n x_j} = \frac{\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n |x_i - x_j|}{2n^2 \bar{x}} \quad (1)$$

Ekstremal holatlar har bir kishi bir xil daromad oladigan “eng teng” jamiyat ($G=0$) va “eng teng bo‘lmagan” jamiyat (N kishidan iborat) bilan ifodalanadi, bu yerda bitta odam umumiy daromadning 100 foizini oladi. Qolgan $N-1$ kishi hech nimani olmaydi ($G=1-1/N$).

Soddalashtirilgan holat faqat ikkita daromad darajasini, past va yuqori darajasini ajratib turadi. Agar yuqori daromadli guruh aholining y nisbati bo‘lsa va barcha daromadlarning f ulushini oladigan bo‘lsa, u holda Jini koeffitsiyenti $f-y$ bo‘ladi. Xuddi shu qiymatlarga ega bo‘lgan ko‘proq darajali taqsimot y va f har doim $f-y$ dan yuqori Jini koeffitsiyentiga ega bo‘ladi. Aholining eng boy 20 foizi barcha daromadlarning 80 foiziga ega bo‘lgan tez-tez tilga olinadigan holat (Pareto tamoyiliga ko‘ra) daromadning kamida 60 foizini tashkil qiladi. Yana bir tez-tez tilga olinadigan holat, butun dunyo aholisining 1 %i barcha boylikning 50 %iga egalik qiladi, bu boylik Jini koeffitsiyenti kamida 49 %ni tashkil qiladi. (1)-model XX asr boshlarida italyan olimi Korrado Jini tomonidan taklif qilingan. Ko‘rsatkich 0 (mutlaq tenglik)dan 1 (mutlaq tengsizlik) oralig‘ida qiymatga ega (3-rasm).



3-rasm. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi aholisi o‘rtasida daromad taqsimoti va mutlaq tenglik chizig‘i tasviri¹⁴

3-rasmda keltirilgan aholi daromadlarining taqsimlanishi va mutlaq tenglik chizig‘i orqali 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi aholisining Jini koeffitsiyentining grafik tasviri bo‘lib, unda 45 graduslik chiziq daromadlarning mukammal tengligini anglatadi. Ushbu grafik shuni ko‘rsatadiki, Jini

¹⁴ Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

koeffitsiyenti A bilan belgilangan maydonga A va V bilan belgilangan maydonlar yig'indisiga bo'lingan, ya'ni:

$$G=A/(A+V) \quad (2)$$

Bu yerda: A - mutlaq tenglik chizig'i va haqiqiy taqsimot chizig'i orasidagi raqam maydoni (yuqoridagi rasm);

V - haqiqiy taqsimot chizig'i va absissa o'qi orasidagi raqamning maydoni (pastki rasm). Keltirilgan misolga ko'ra, $G=37,3\%$, bu jamiyatdagi tengsizlikning ancha yuqori darajasini bildiradi.

Bundan tashqari, $A+B=0,5$ (chunki o'qlar 0 dan 1 gacha masshtablanganligi sababli) $2A$ va $1-2B$ ga teng. Bu chiziq aholining har bir kvintil guruhi (20%) tegishli ravishda umumiy daromadning bir xil ulushini olish holatini ko'rsatadi. Jini koeffitsiyenti mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot va YaIM o'sishi bilan solishtirish uchun ishlatiladi. Bu mamlakatdagi iqtisodiy tengsizlik dinamikasini ko'rsatishga yordam beradi. Piketty ta'kidlashicha, iqtisodiy tengsizlik odatiy hodisadir, chunki shaxsning shaxsiy muvaffaqiyati uchun imkoniyatlari individual qobiliyat va mehnatsevarlik bilan emas, balki uning irsiy mavqei va aloqalari bilan belgilanadi¹⁵.

Bundan tashqari, zamonaviy bozor iqtisodiyoti qonunlari aholining kichik bir qismida boylikning konsentratsiyasini rag'batlantirishini tasdiqladi. Pikettyning daromadlar tabaqalanishining o'sishi haqidagi illyustratsiyasi insonning moddiy farovonligi shaxsning shaxsiy fazilatlari emas, balki merosxo'rlik natijasida shakllanganligini isbotlaydi, bu esa demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan birini buzadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu tamoyil amalga oshirilganiga qaramay, T.Piketty urushdan keyingi davr ancha anomaliyaga aylanganini isbotladi.

Bizningcha, davlatning boylik solig'ini joriy etish orqali jahon iqtisodiyotini tartibga solishdagi o'rni muhimligini ta'kidlagan bo'lsa, boshqa tomondan, bunday chora imkonsizligicha qolayotganini tan oldi. Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va daromadlar tafovutining chuqurlashishi jarayoniga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, psixologik, demografik va boshqalar.

Aholining daromadlari tarkibiga ba'zi omillar ta'sir etsa, boshqalari ularning taqsimlanishiga ta'sir qiladi. Iqtisodiy omillarga daromad manbalarining xilma-xilligi, mehnat unumdorligidagi farqlar, mulkchilikdagi farqlar, ish beruvchi va xodim manfaatlari o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Ijtimoiy omillarga quyidagilar kiradi: xodimning bilim darajasi, hududiy va aholi punktlari xususiyatlari, ijtimoiy resurslar, inson qobiliyatlarining farqlari, xavfga munosabat. Demografik omillar- yosh, jins, milliy, madaniy xususiyatlar, shuningdek, demografik bosimni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, bu boradagi muammolarning yetarli darajada o'rganilmaganligi, samarali davlat va hududiy boshqaruv siyosatining yetishmasligi alohida hududlar uchun kambag'allik muammolarini o'rganish zaruriyatiga olib keldi. Chunki,

¹⁵ Piketty, T. 2014, Capital in the Twenty-First Century. Cambridge: Harvard University Press.

mamlakat uchun umumiy bo'lgan omillarga qo'shimcha ravishda, alohida hududlarda aholining kambag'alligiga hududiy obyektning tabiati bilan belgilanadigan omillar ta'sir qiladi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida kambag'allik darajasi¹⁶

Hududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2021-yilda 2000-yilga nisbatan o'zgarishi, (-,+)
O'zbekiston Respublikasi	33,5	32,2	18,8	13,3	12,0	17,9	-15,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	45,5	47,0	25,9	17,8	14,7	21,9	-23,6
Andijon	24,2	28,8	21,0	14,4	12,9	19,5	-4,7
Buxoro	31,2	28,2	15,4	10,8	9,5	14,0	-17,2
Jizzax	48,6	43,9	21,4	14,4	12,7	19,1	-29,5
Qashqadaryo	37,7	35,2	20,4	15,0	13,7	20,4	-17,3
Navoiy	22,3	17,6	10,0	7,9	6,9	10,3	-11,9
Namangan	41,3	39,0	24,7	16,9	14,9	22,1	-19,2
Samarqand	35,5	39,3	19,1	15,1	13,1	19,6	-15,9
Surxondaryo	41,9	35,1	22,3	15,2	14,1	20,9	-21,0
Sirdaryo	36,7	34,5	17,4	12,0	12,8	19,7	-17,0
Toshkent	31,0	26,2	16,0	11,4	10,6	15,4	-15,6
Farg'ona	25,7	30,9	22,4	15,8	15,7	22,9	-2,8
Xorazm	36,1	37,8	18,4	13,7	11,3	16,2	-19,9
Toshkent.sh	11,7	7,6	8,7	6,5	5,6	8,5	-3,3

Jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib, biz O'zbekiston Respublikasi hududlarini miqdoriy xususiyat, ya'ni nisbiy qashshoqlik darajasi bo'yicha guruhlaymiz. Buning uchun biz 2020-yil va 2021-yillarni bir-biri bilan taqqoslashda avvalambor, Sterdjies formulasi asosida O'zbekiston Respublikasining umumiy mintaqalari uchun guruhlar sonini hisoblaymiz:

$$n=1+3,322*\lg 25=1+3,322*1,146\approx 5$$

Quyidagi formuladan foydalanib, har bir intervalning o'lchamini topamiz:

$$h = \frac{X_{max} - X_{min}}{n} \quad (3)$$

X_{max} va X_{min} ko'rsatkichlarni EXEL dasturida berilgan ko'rsatkichlarning tavsifiy statistika paketidan foydalangan holda quyidagi natijalarga ega bo'lamiz (3-jadval):

Ushbu jadvalda keltirilgan natijalardan dastlab, ustunlar bo'yicha maksimum va minimum qiymatlaridan foydalangan holda 3-formulaga asosan 2021-yildagi O'zbekiston Respublikasi hududlarining kambag'allikning nisbiy mezon bo'yicha:

$$h=(22,9-8,5)/5=2,88$$

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining 2020–2021-yillardagi kambag‘allik ko‘rsatkichining tavsifiy statistikasi¹⁷

2020		2021	
Среднее	12,04219	Среднее	17,88101
Стандартная ошибка	0,744703	Стандартная ошибка	1,099889
Медиана	12,76719	Медиана	17,14283
Стандартное отклонение	2,884221	Стандартное отклонение	4,259851
Дисперсия выборки	8,318731	Дисперсия выборки	18,14633
Экссесс	0,731903	Экссесс	0,485853
Асимметричность	-1,08905	Асимметричность	-1,09006
Интервал	10,12898	Интервал	14,4121
Минимум	5,587532	Минимум	8,457742
Максимум	15,71651	Максимум	22,86984
Сумма	180,6328	Сумма	268,2151
Счет	15	Счет	15

foiz oralig‘i (interval) ekanligi aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasining viloyatlarini 2021-yilda kambag‘allik darajasi bo‘yicha guruhlash natijalari 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha kambag‘allik darajasi, %da¹⁸

Nisbiy kambag‘allik darajasining sifat mezonlari	Nisbiy kambag‘allik darajasi, foiz oralig‘i			Yig‘ilgan chastotalar, S birliklari va ulushlari		To‘plangan daraja, %da
	≥	<	“dan – gacha”	birlikda	%	
A‘lo	8,55	11,38	8,55 -11,38	2	14,3	64,3%
Yaxshi	11,38	14,26	11,38 - 14,26	1	7,1	35,7%
O‘rta	14,26	17,14	14,26 -17,14	2	14,3	21,4%
Qoniqarli	17,14	20,02	17,14 -20,02	4	28,6	14,3%
Qoniqarsiz	20,02	22,90	20,02 -22,90	5	35,7	-
Umumiy taqsimot qonuning qiymati				14	100,0	

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra aniqlangan 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha kambag‘allik darajasining sifat mezonlari bo‘yicha e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Toshkent shahri va Navoiy viloyati 8,55 % va 10,3 %ga, ya‘ni “A‘lo” qiymat darajasiga teng bo‘ldi. “Yaxshi” darajaga birgina Buxoro viloyati (15,4 %), “O‘rta” qiymat darajaga aholisining kambag‘allik darajasi 15,4 % bo‘lgan Toshkent viloyati va kambag‘allik darajasi 16,2 %ga teng bo‘lgan Xorazm viloyati ega bo‘ldi.


“Qoniqarli” daraja, ya‘ni, (17,14-20,02) intervalga to‘rtta viloyat kirgan bo‘lib, ularga Andijon viloyati (19,5 %), Jizzax viloyati (19,1 %), Samarqand viloyati (19,6 %) va Sirdaryo viloyat (19,7 %)lari aholisining kambag‘allik

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

darajasiga teng bo'lgan viloyatlar tashkil etdi. Ammo, shuni ham alohida ta'kidlash joizki, 2021-yilda "Qoniqarsiz" darajaga O'zbekiston Respublikasi hududlarining beshtasi ya'ni, Qoraqalpog'iston Respublikasi (21,9 %), Qashqadaryo viloyati (20,4 %), Namangan viloyati (22,1 %), Surxondaryo (20,9 %) va Farg'ona viloyat (22,9 %)lari kirdi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, ushbu kambag'allik darajasi O'zbekiston Respublikasi hududlarining har birida turlicha darajaga teng ekanligi kelib chiqdi. Bu esa o'z navbatida mamlakat aholisining kambag'allik darajasini baholashda uning hududlari bo'yicha taqsimotni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini ifoda etadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotda hududlardagi kambag'allik darajasini taqsimlanish me'yoriga ko'ra, haqiqatdagi taqsimot holati o'rtasidagi munosabatni aniqlash mumkin (4-rasm).



4-rasm. Hududlardagi kambag'allik darajasini taqsimlanish me'yoriga ko'ra, haqiqatdagi taqsimot holati o'rtasidagi munosabat¹⁹

4-rasmda keltirilgan taqsimot natijalariga (8,55-11,38 %) ko'ra, dastlabki qiymat haqiqatdagi (14,3 %) va me'yordagi kambag'allik darajasi (64,3 %)ga tengligi bu esa o'z navbatida bu boradagi taqsimot noto'g'ri bo'lganligini ifoda etadi. Keyingi (11,38-14,26) interval uchun haqiqatda - 7,1 % taqsimlangan bo'lib, aslida ushbu taqsimot - 35,7 % bo'lishi lozimligini ko'rsatmoqda. "O'rta" (14,26-17,14) daraja bo'yicha me'yor ko'rsatkich 21,4 %ga teng bo'lsada, aslini olganda bu qiymat - 14,3 % qiymatni tashkil etdi. "Qoniqarsiz" (20.02-22.9 %) holat bo'yicha taqsimotga nazar tashlaydigan bo'lsak, haqiqatdagi qiymat - 28,6 % bo'lib, bu me'yor qiymatidan 2 barobar oshib ketganligini namoyon etdi. Bu esa o'z navbatida taqsimot notekis ekanligini tasdiqlaydi. Guruhlash natijasida 5 ta guruh qo'lga kiritildi, ulardan bittasi, ya'ni "qoniqarsiz" holat bo'yicha eng ko'p sonli hududlarni, ya'ni 5 ta hududni yoki har biridagi umumiy sonning 35,7 foizini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning "**Kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilish istiqbollari**" deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasini baholashning hududiy

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

geografik xususiyatlari asosida takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi hamda Andijon viloyatlari bo‘yicha kambag‘allik darajasi o‘zgarishining ko‘p omilli solishtirma prognoz natijalari ishlab chiqilgan.

Kambag‘allik taqsimotining geterogenligi va o‘rta sinfni shakllantirish muammolari ma‘lum bir hududning rivojlanish sharoitlari natijasi bo‘lgan bir qator omillarning ta‘siriga bog‘liq. Kambag‘allikni bartaraf etish strategiyasi o‘rta sinfni shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamdir, chunki u aholi daromadlari darajasini oshirishni o‘z ichiga oladi. Kambag‘allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ham iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ham moddiy va nomoddiy ne‘matlardan foydalanishdagi tengsizlikka bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bugungi kunda turmush darajasining biroz o‘shishiga va qashshoqlik holatining umumiy yaxshilanishiga qaramay, oilaning moddiy farovonligi darajasi, uning ijtimoiy-demografik darajasi (uydagi odamlar soni, oila a‘zolari soni) va mehnat qonunchiligiga muvofiq yosh guruhi, mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarning qaramog‘idagilarning yuki, yashash joyi) hamda ijtimoiy-iqtisodiy (maqomi, ma‘lumoti, daromad darajasi, iqtisodiy faoliyati) xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatlarga ham bog‘liqligi namoyon bo‘lmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasida mavjud kambag‘allik darajasi o‘zgarishining $KD = \frac{INI^{0.643} * e^{32.2}}{YIMO^{0.83} * AJD^{0.06} * BD^{3.9} * AZ^{2.71}}$ (4) ko‘p omilli prognoz natijalarini (t=23) vaqtga bog‘liq barcha ko‘rsatkichlarning quyidagi o‘zgarish tenglamalaridan:

Mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmining o‘shishi - $YIMO' = 106.5 + 0.04 * t$;

Aholi jon boshiga umumiy real daromadning o‘shishi - $AJD = 117.4 + 0.2 * t$;

Mamlakat iqtisodiyotida bandlik darajasi - $BD = 67.8 - 0.04 * t$;

Respublikada 1 kv. km.ga to‘g‘ri keladigan aholi zichligi - $AZ = 52.2 + 1.2 * t$;

O‘zbekiston Respublikasida iste‘mol narxlar indeksini - $INI = 116.6 - 0.3 * t$;

foydalanib aniqlash mumkin (5-jadval).

5-jadval

O‘zbekiston Respublikasida mavjud kambag‘allik darajasi o‘zgarishining ko‘p omilli prognoz natijalari²⁰

Yillar	Kam ta‘minlanganlik, (kambag‘allik) darajasi, %	YaIM o‘shishi, %	Aholi jon boshiga umumiy real daromadning o‘shishi, %	Bandlik darajasi, %	1 kv. km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni	Iste‘mol narxlar indeksini, %
2023	15,6	107,5	122,2	66,9	81,0	109,4
2024	14,9	107,5	122,4	67,0	82,2	109,1
